

JISMONIY SHAXSLARGA DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM KO'RSATILADI

*Parkent tumani adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti
D.P.Tojiboyev*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi 774-sonli Qarori bilan "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risida" Nizom tasdiqlandi.

Ushbu nizomga ko'ra, davlat hisobidan ko'rsatiladigan yuridik yordam — Qonunda belgilangan tartib-taomillar va shartlarga muvofiq davlat hisobidan to'liq yoki qisman ko'rsatiladigan, jismoniy shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan malakali yuridik yordam hisoblanadi.

Nizomga asosan, quyidagi jismoniy shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatiladi:

- kam ta'minlangan shaxslar (fuqarolik ishlari bo'yicha da'vogarlar yoki javobgarlar, ma'muriy ishlar bo'yicha ariza beruvchilar, ma'muriy qamoq jazosi nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar hamda jinoyat ishlari bo'yicha gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, shuningdek, mahkumlar bo'lsa);
- ruhiy holati buzilgan jismoniy shaxslar, ularga psixiatriya yordami ko'rsatilayotganda;
- o'z huquqlari buzilgan, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan jismoniy shaxslar;
- jinoyat ishi bo'yicha advokat ishtirok etishi shart bo'lgan taqdirda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi.

Shuningdek, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan kam ta'minlangan shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ushbu shaxslar tomonidan ma'muriy qamoq jazosi nazarda tutilgan huquqbuzarlik sodir etilgan hollarda ko'rsatiladi.

Nizom bilan davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi belgilandi.

Bunga ko'ra, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash olti bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich, jismoniy shaxs davlat hisobidan yuridik yordam olish uchun eksterritoriallik prinsipi asosida adliya bo'limiga og'zaki, yozma yoki elektron shaklda murojaat qiladi. Shuningdek zaruratga ko'ra, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud, vakolatli organ yoki muassasa yoxud mansabdor shaxs davlat hisobidan yuridik

yordam ko'rsatish haqida so'rov (qaror yoki ajrim)ni "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali adliya bo'limiga yuboradi.

Ikkinchi bosqich, tuman (shahar) adliya bo'limi uch ish kuni ichida ariza yoki so'rovni ko'rib chiqib, natijasi bo'yicha "Yuridik yordam" axborot tizimida davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish yoki ko'rsatishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi va ro'yxatga oladi.

Uchinchi bosqich, Qaror ro'yxatga olingandan so'ng "Yuridik yordam" axborot tizimi Adliya bo'limining davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi qarori, shuningdek, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning himoyachi (advokat) tayinlash to'g'risidagi qarori yoki sudning ajrimi ish ko'rib chiqilayotgan hudud bo'yicha advokatni tasodifiy elektron tarzda tanlaydi.

Tanlangan advokatning telefon raqamiga hamda "Yuridik yordam" axborot tizimidagi shaxsiy elektron kabinetiga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish uchun ishni qabul qilish yoki rad etish haqida "SMS" shaklida xabarnoma yuboradi.

Tanlangan advokat jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha bir soat, boshqa turdagi ishlar bo'yicha besh ish soati mobaynida ishni qabul qilishni rad etgan yoki xabarnomaga javob bermagan taqdirda, ish ko'rib chiqilayotgan hudud yoki ish ko'rib chiqilayotgan hududga yaqin hududlar doirasida boshqa advokatni tanlaydi. Ushbu jarayon tanlangan advokatlardan biri o'zining ishda ishtirok etishini tasdiqlamaguniga qadar davom etadi.

To'rtinchi bosqich, advokat belgilangan muddatlarda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadi hamda tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov va sud jarayoni, shuningdek, psixiatriya yordami ko'rsatish yakunlangan kundan boshlab, bir oy muddat ichida davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni "Yuridik yordam" axborot tizimiga kiritadi.

Tasdiqlovchi hujjatlarning protsessual harakatlarni amalga oshirishda advokatning ishtirok etishi haqidagi qismini ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud yoki boshqa vakolatli organ (mansabdor shaxs) bilan uch ish kuni ichida "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali kelishadi.

Kelishilgandan so'ng tasdiqlovchi hujjatlarni "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilgan hududdagi adliya bo'limiga yuboradi.

Beshinchi bosqich, tuman (shahar) adliya bo'limi kelib tushgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida tasdiqlovchi hujjatlarni tekshiradi hamda davlat hisobidan ko'rsatilgan yuridik yordam bo'yicha advokatga haq to'lash uchun tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo'limiga yuboradi.

Oltinchi bosqich, tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo'limi tasdiqlovchi hujjatlar kelib tushgandan so'ng har oy yakuni bo'yicha keyingi oying birinchi o'n besh kuni davomida davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatgan advokatga u faoliyat

yuritayotgan advokatlik tuzilmasining bank hisobvarag'iga pul o'tkazib berish yo'li bilan haq to'laydi.

Advokatga belgilangan miqdorlarda haq to'lanishi bilan birga xizmat safari va transport xarajatlari advokat shartnoma tuzgan joydan 50 km masofadan uzoq bo'lgan hududda yuridik yordam ko'rsatilgan hollarda qoplanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 774-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining 16.06.2023-yildagi "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-848-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 27.02.2024-yildagi "“Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'RQ-915-son Qonuni.